



“Involta” Ilmiy Jurnali

Vebsayt: <https://involta.uz/>

SINTAKSIS BO‘LIMINING O‘RGANILISHI VA TARIXI.

Islomov Shohijahon Shuhratjon o‘g‘li

shoxjaxonislomov@gmail.com

Oybek Boboqulov Abdiqodirovich

www.bobokulovoybek999@gmail.com

Denov tadirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligining sintaksis bo‘limi haqida so‘z boradi va bo‘limning bugungi kunda o‘rganilishi hamda gap va u ifodalaydigan mazmun hamda tuzulishi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar: sintaksis, gap, nutq birliklari, so‘z, so‘z birikmasi, sodda gap, qo‘shma gap, fikr, ifoda, vosita.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi o‘ziga xos rivojlanish taraqqiyotiga ega hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligi xususiyatlari bir qancha bo‘limlar doirasida o‘rganiladi. Shunindek, sintaksis bo‘limi shunday bo‘limlardan biridir. Sintaksis — 1) nutq birliklarini shakllantirishning muayyan tillar uchun xos bo‘lgan vositalari majmui; 2) grammatikaning so‘zlarni so‘z birikmalari va gaplarga, sodda gaplarni esa qo‘shma gaplarga birikish usullarini o‘rganuvchi, so‘z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma’nosи, o‘zaro ta’sirlashuvi hamda vazifalarini tadqiq etuvchi bo‘limi. Sintaksis yununcha “*syntaxis*” dan olingan bo‘lib, “tuzilma”, “tartib”,

“birikma” degan ma’nolarni bildiradi. "Sintaksis" termini so‘z birikmalari va gaplarni hamda ularning tilda qo‘llanishini qamrab oluvchi grammatik qurilish ma’nosini ifodalash uchun ham ishlataladi. Tilning grammatik qurilishida sintaksis juda katta ahamiyatga ega, chunki uning tarkibiga bevosita kishilarning muomala muloqot jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi til birliklari kiradi. Xususan gapning sodda va qo‘shma turlari mavjuddir. Quyida ularga to‘xtalib o‘tamiz: sodda gap muayyan voqeа hodisani, qo‘shma gap voqeа hodisalar orasidagi aloqa munosabatni, gap bo‘lagi esa voqeа hodisa unsurlarining vazifalarini ifodalaydi.

Sintaksis morfologiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Sintaksisda, xuddi morfologiyada bo‘lgani singari, so‘z asosiy birlik hisoblanadi, lekin u shakl yasalishi jihatidan emas, balki so‘z shakllarining so‘z birikmasi va gaplarni tuzishdagi ishtiroki jihatidan o‘rganiladi. So‘z birikmalari va gaplar tilning asosiy sintaktik birliklari va ularning har biri o‘z ichki xususiyatlariga egadir. Sintaksisning asosiy birliklaridir:

- 1.Gap;
- 2.Gap bo‘lagi;
- 3.So‘z birikmasi.

Bularga keyingi paytlarda *abzats*, *period*, *matn* kabi birliklar ham kiritilmoqda. So‘z birikmasi tobe aloqa (bog‘lanish) vositalari — moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv yordamida ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zdan hosil bo‘ladi va faqat matn tarkibidagina amal qiladi. Gap Sintaksisning markaziy birligidir. U struktursemantik qolip va nutq birligi bo‘lmish fikr sifatida o‘rganiladi. Gap — fikrni tashqi olam bilan aloqa tufayli yuzaga keladigan his tuyg‘ularni ifodalash vositasi. Gap ba’zan bir mustaqil so‘zdan ("qorong‘ulashmoqda", "jimjitlik"), aksariyat hollarda esa bir necha so‘zdan hosil bo‘ladi. Asosan, sintetik tillar, shuningdek, analistik tillarning xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘zbek tilida gapdagи so‘zlarning bog‘lanish vositalari sifatida, yordamchi so‘zlar: ko‘makchilarni, yukalamalar va bog‘lovchilarni, so‘z tartibini, ohangni va boshqalarni ko‘rsatish

mumkin. Sof analitik tillarda gapdagi so‘zlarning bog‘lanish vositalari, asosan, yordamchi so‘zlar bo‘lsa, agglyutinativ va amorf tillarda mazkur vazifani so‘z tartibi bajaradi. Hozirgi Sintaksisda mavhum grammatik struktura sifatida gap tushunchasi hamda mazkur strukturaning nutqda aniq voqealanishi vositalari sifatida ifoda tushunchasi farqlanadi; shunga muvofiq, ravishda “gap” nazariyasi va “ifoda” nazariyasi ham chegaralanadi.

1. Gap sintaksis doirasida uni shakllantirishning usul va vositalari,
2. Ifoda sintaksis doirasiga esa gapning aktual bo‘linishi vositalari hamda uning ma’no strukturasi muammolari kiritiladi

Tildan foydalanish fikrni shakllantirish va bayon qilishdan iboratdir. Bu esa gap orqali amalga oshar ekan, demak, til yaxlit vujud sifatida sintaksisda namoyon bo‘ladi. Gap-kishilarining bir-biriga fikr, axborot uzatish uchun ishlata digan asosiy birlik bo‘lib, fikr ifodalashning eng oddiy va tipik ko‘rinishidir. Gap so‘zlovchi uchun fikr ifodalash va axborot uzatish, tinglovchi uchun axborot qabul qilish vositasi sanaladi. Kishi o‘ngida fik tushunchalar assosida tiklanadi. Bu fikr nutqda gap sifatida yuzaga chiqadi. Fikr tushunchalardan tashkil topganligi kabi gap ham tushunchalarning formasi sanaladi, gap so‘z va so‘z birikmalaridan tuziladi. Gapning tashkil etuvchilari so‘z va so‘z birikmalaridir. Tilning asosiy vazifasi odamlarning bir — birlarini tushunishlari va gaplashishlarida vosita bulib xizmat qilishdir. Axborot uzatish va bilish vositasi bo‘lib — tilning kommunikativ mohiyatidir¹

Sintaksisda, shuningdek, gap bo‘laklari ham o‘rganiladi. Ular bosh (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo‘laklar (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol)dan iborat. Keyingi paytlarda kesim gapning asosi ekanligi, undalma, kirish so‘z va kiritmalarga gapning uchinchi darajali bo‘laklari maqomini berish masalalari ham ko‘tarilmoqda. "Sintaksis" termini, garchi ayni hozirgi ma’noda bo‘lmasada, dastlab mil. avv. 3-asrda Yunonistonda stoiklar tomonidan qo‘llangan. Sintaksisning ilk prinsiplarini yunon grammatisti Apolloniy Diskol morfologik

¹ Р.САЙФУЛЛАЕВА, Б.МЕНГЛИЕВ, Г.БОКИЕВА, М.ДУРБОНОВА , З.ЮНУСОВА, М.АБУЗАЛОВА
“Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Ўқув қўлланмаси. Тошкент. 2006. —174 б.

negizda, xususan, so‘z turkumlari Sintaksis tarzida asoslagan. Sintaksis tarixi yevropa va rus tilshunosliklarida bo‘lganidek turkiy tillarda (o‘zbek tilida) ham o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini o‘tgan. Qomusiy alloma Mahmud Koshg‘ariyning 11-asrda "Javoxir unnahvi fi lugotit turk" ("Turkiy tillar sintaksisi qoidalari") asarini yaratganligi buning yaqqol isbotidir. 20-asrda o‘zbek tili sintaksisiga, qisman, sintaktik qurilishiga rus tilshunosligidagi nazariy tadqiqotlar ma’lum darajada ta’sir o‘tkazgan. O‘tgan asrda o‘zbek tili sintaksisi sohasida Abdurauf Fitrat, Ayub G‘ulomov, F.Abdullayev, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Nurmonov, N.Mahmudov va boshqalar jiddiy tadqiqotlar olib bordilar. Sintaksis grammitikaning bir bo‘limi bo‘lib, bunda so‘zlarning va gaplarning o‘zaro aloqasini, so‘z birikmalari va gaplarning turlarini, birikish usullarini o‘rganadi. Bu jihatdan sintaksis morfologiyadan farqlanadi. Chunki morfologiya so‘zlarning tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishi kabilarni tekshiradi. Sintaksis esa, ana shu formalarning dinamikasini, ularning funksiyasini ma’lum bir fikrni ifodalashdagi rolini o‘rganadi. Morfologiya va sintaksis bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro munosabatda bo‘lgan sohalardir. Gap-turlari – darak, so‘roq, buyruq, undov gaplarning bir-biridan farqlanishi, asosan kesimlarning qanday so‘z turkumi orqali ifodalanishiga bog‘liq. Masalan:

1. Bugun faollar zalida tadbir bo‘lib o‘tdi -darak gap.
2. Bayram tadbirimizda kim qatnashmad? - so‘roq gap.

So‘z birikmalari ham boshqaruvchi, ya’ni bosh so‘zning qanday so‘z turkumi ekanligiga qarab, tasnif qilinadi. Sintaksisda esa, ergash gaplar bosh gap tarkibidagi ayrim belgi xususiyatlariga ko‘ra: ega, kesim to‘ldiruvchi, aniqlovchi ergash gaplarga ajratiladi. Demak, har bir sintaksisning kategoriyasi morfologiya bilan bog‘langan holda tahlil qilinadi va belgilanadi². Ba’zan esa bu ikki sohani, ya’ni morfologiya va sintaksisni bir-biridan ajratish ham qiyin bo‘ladi. Masalan: kelishiklar morfologiyada ham, sintaksisda ham o‘rganiladi. Ammo morfologiyada, asosan kelishik yolg‘iz formal jihatdan, ya’ni kelishikning formasi,

² O‘zbek tili grammatisasi, 2j., T., 1975;

qanday so‘z turkumiga qo‘silishi tekshirilsa, sintaksisda esa kelishikning vazifasi, qanday so‘zlar bilan, bo‘laklar bilan bog‘lanishi o‘rganiladi. Ammo kelishikning vazifasi ham hisobga olinadi. Shuningdek, sintaksis kategoriyalari morfologik kategoriyalarga teng emas. Masalan: *bizning oila - to‘q oila*. Bu jumladan, morfologik jihatdan to‘rt so‘z, uch xil so‘z turkumi bor (olmosh, ot, va sifat). Sintaktik jihatdan esa faqat bitta bo‘lak – ega va kesim mavjud, xolos. Demak, sintaksisda so‘zlar kengroq aspektida, ularning ma’nosi va vazifasi hisobga olingan holda tekshiriladi.

Barcha tillar sintaksisida avval fikr predmeti - ega (bajaruvchi) aniqlanib, keyin esa kesim vazifasida keladigan leksemaga tuslovchi shu fikr predmetidan anglashiladigan shaxs-son ma'nosiga mos holda tanlab qo‘siladi. Bu - aksioma. Tuslovchining fikr predmetidan, gap shaklning ega bo‘lagidan anglashiladigan shaxs-son ma'nosi asosida tanlab qo‘silishini, masalan, quyidagi hodisa so‘zsiz tasdiqlaydi: uyushiq qator bilan ifodalangan ega tarkibida *I shaxs kishilik olmoshi qatnashsa*, kesimga *I shaxs ko‘plik tuslovchisi*, *II shaxs kishilik olmoshi qatnashsa*, *II shaxs ko‘plik tuslovchisi* qo‘siladi: *Onam bilan men quchoqlashdik. Onam bilan sen quchoqlashdingiz* kabi. Bunday uyushiq qatorni tuslovchi asosida mutlaqo aniqlab bo‘lmaydi. *Shoirman* leksema shakliga *-man* tuslovchisi ega (bajaruvchi) *I shaxs birlik olmoshi* bo‘lgani uchun qo‘siladi, aksincha emas.³

Kishilar bir-birlari bilan fikr almashadilar. Bu fikr almashuvi gap orqali bo‘ladi. Gap va uning grammatic xususiyatlari, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish yo‘llari sintaksisda o‘rganiladi. Sintaksisning asosiy o‘rganish ob’ekti gapdir. Voqelikni va unga bo‘lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatic jihatdan shakllangan inntonatsion hamda mazmun jihatdan nisbatan mustaqillikka ega bo‘lgan so‘zlar bog‘lanmasi yoki yakka so‘zga gap deyiladi. Asosan buyruq gaplar: yur, yoz, yugur, bor kabilar. Gap fikrni ifoda qiluvchi nutq birligidir. Gapning asosiy belgilari quyidagilar: 1. *Fikr turli gap tiplari orqali ifodalanadi, fikr sodda yoki qo‘shma gaplar orqali, darak, so‘roq, undov gaplar orqali, ikki sostavli yoki bir*

³ Sh.Raxmatullayev. Hozigi o‘zbek adabiy tili (darslik). “Universitet”, Toshkent. 2006. 476 b.

sostavli gaplar orqali, to 'liq yoki to 'liqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Bu hol fikrning xarakteriga, ma'lum maqsad yoki niyatga qarab belgilanadi; 2. Gapning asosiy belgilari, uning so'z yoki so'z birikmalaridan farqi nimada? *Gapning asosiy belgilari, unda nisbiy fikr tugalligi predikativlikning mavjud bo 'lishi, grammatik jihatdan ma'lum qonun va qoidalar asosida shakillanishi, tashqi tomondan o'ziga xos intonatsiyaga ega bo 'lishi shart.* Gapning bu xususiyatlari ko'pchilik tillar uchun umumiyydir. Ammo bu belgilarining turli tillarda nomoyon bo'lishi va ularning ahamiyati, o'rni turlichadir har bir gapda ma'lum maqsad yoki his-hayajon ifodalanadi. Aks holda, u so'z birikmasi bo'lib qoladi. Masalan: *Nodira o'qidi va Nodiraning daftari.* Bu misolda birinchisi - gap, ikkinchisi esa so'z birikmasidir. Avvalgisida ma'lum fikr almashyapti. Keyingisida esa tushuncha aks etgan. Bu maqsad yoki his-hayajon sodda yoki qo'shma gap shaklida ifodalanishi ham mumkin. Qo'shma gaplarda komponentlar birikkandagina ma'lum maqsad anglashiladi. Masalan: *ko 'z qo 'rroq - qo 'l botir* – gapida ko'zning qo 'rroqligi bilan *qolning botirligi* haqidagi fikrlar ifodalangan. Shuning uchun ham qo'shma gapga ikkita sodda gapning mexanik tarzda birikuvi holda emas, balki gap strukturasinig o'ziga xos alohida bir tipi sifatida qaraladi. Ammo qo'shma gaplarda fikr, maqsad bitta bo'lsa ham, hukm birdan ortiq bo'ladi. Yuqoridagi keltirilgan misolda ikkita hukm ifodalangan, "*ko 'zning qo 'roqligi*", "*qo 'lning botirligi*" - o'zbek adabiy tilida birdan ortiq hukm bir sodda gap orqali ifodalanishi ham mumkin. Masalan: *kitob olganiga xursand bo'ldi. Har bir brigada ekishga tayyor bo'lib turishi zarurligini qayta-qayta uqtirdi.* Bu sodda gaplarning har birida ikki xil hukm ifodalangan. Gapning asosiy belgilaridan yana biri predikativlikdir. Predikativlik gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalashdir. Gap orqali so'zlovlovchi biror voqe-a-hodisa yoki xususiyatning mavjudligi yoki biror zamonda ro'y berishi, realligi yoki norealligi, xohish yoki norozilik kabi munosabatni ham ifodalaydi. Bu munosbatni ham ifodalaydi. Bu munosabat, ya'ni *prediktivlik, modallik* va *zamon, shaxs-son* kategoriyalari orqali ro'yobga chiqadi, bu kategoriylar turli morfologik, sintaktik, intonatsiya va

boshqa yo'llar bilan ifodalanadi. Gapning o'ziga xos belgilaridan yana biri unda maxsus intonatsiyaning bo'lishidir. Har bir gap intonatsion jihatdan ham shakillangan bo'ladi gapning boshlanishi va tugallanishi uning intonatsiyasidan sezilib turadi. Gap oxirida intonatsiya ham tugallanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sintaksis bo'limini o'zbek adabiy tilida o'rganilishi va ustida ishlanishi kerak mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Bu bo'lim ustida ko'p izlanishlar olib borilgan. Xususan, Shavkat Raxmatullayev va Ra'no Sayfullayevalarning xissalarini alohidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbek tili grammatikasi, 2j, T., 1975;
- 2.Mahmudov N., Nurmonov A, O'zbek tilining nazariy fammatikasi. Sintaksis, T., 1995.
3. Sh.Raxmatullayev. Hozigi o'zbek adabiy tili (darslik). "Universitet", Toshkent. 2006. 476 b.
4. Р.САЙФУЛЛАЕВА, Б.МЕНГЛИЕВ, Г.БОКИЕВА, М.ДУРБОНОВА ,
3.ЮНУСОВА, М.АБУЗЛОВА
"Хозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Ўқув қўлланмаси. Тошкент. 2006.
174 б.
2. www.ziyonet.uz